



“ILM-FAN VA TA'LIM” JURNALIGA QABUL QILINGAN MAQOLALARGA 3 ISH KUNIDA DOI RAQAM OLINADI VA ZENODO, OPENAIRE, CYBERLENINKA, GOOGLE SCHOLAR (10 ISH KUNI) KABI XALQARO ILMIY BAZALARDA INDEKSLANADI VA ILMIY JURNAL TO'LIQ SHAKLDA WWW.ILMFANVATALIM.UZ RASMIY SAYTIGA JOYLANADI.

ISSN: 2181-4325

ILM-FAN VA TA'LIM

Respublika ilmiy jurnali

ZENODO | OPENAIRE | CYBERLENINKA | GOOGLE SCHOLAR

Aniq fanlar

Texnika fanlari

Pedagogika fanlari

Ijtimoiy-gumanitar fanlar

Tabiiy fanlar

Iqtisod fanlari

Arxitektura

San'at va madaniyat fanlari

Tibbiyot fanlari

Filologiya fanlari

Qishloq xo'jaligi

Jismoniy tarbiya va sport

“Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnaliga qabul qilingan maqolalarga 3 ish kunida DOI raqam olinadi va Zenodo, OpenAire, Cyberleninka, Google scholar (10 ish kuni) xalqaro ilmiy bazalarida indekslanadi va jurnal to’liq shaklda <https://ilmfanvatalim.uz/> rasmiy saytiga joylanadi.

ILM-FAN VA TA’LIM

ILMIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA
30.06.2023 | № 8



ILM-FAN VA TA’LIM

ilmiy jurnal
scientific journal
научно журнал

Bosh muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda bir marta
nashr etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiya
agentligida 2023- yil
22 - yanvarda 059679
raqam bilan ro‘yxatga
olingan.

ISSN 2181 - 4325

Jurnaldan maqola ko‘chirib
bosilganda, manba
ko‘rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: <https://ilmfanvatalim.uz/>

Tahrir kengashi:

G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna

*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy
markazi Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrası
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Bazarov Otabek Odilovich

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Muydinov Erkin Djamaldinovich

*Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti dekani
Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent*

Mamatov Obidxon Vaqqosovich

*Namangan davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma‘naviyat va huquq
asoslari” kafedrası mudiri, falsafa fanlari nomzodi*

Baymenova Kamshat Saparbayevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Rahimova Maftuna Odilovna

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Rabbonayeva Dildora Tolipovna

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish
milliy markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim
kafedrası katta o‘qituvchisi*

Ganiyeva Lola Muxsindjanovna

*O‘zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy Estrada San‘ati
instituti “Estrada cholg‘u ijrochiligi” kafedrası dotsenti
San‘atshunoslik fanlari nomzodi*

Akbarov Qobuljon

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Tarix fanlari nomzodi*

Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna

*O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası
katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

Maxkamova Dilafuz Yuldashevna

*O‘zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik kafedrası
dotsenti*

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI

Isadjanova Durdona Baxadirovna

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik va xususiy tadbirkorlikka tarif berilib, uning mohiyati va milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni aniq ko‘rsatkichlar bilan ifodalangan, shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xulosalar berilgan. Maqolani yoritishda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qonunchiligimiz, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, taniqli olimlarning ilmiy asarlari o‘rganilib, kichik biznesni iqtisodiyotdagi o‘rni tahlil qilingan, shu bilan birga, tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma’lumotlar va nazariyalarni o‘rganishda tahlilning mantiqiy va taqqoslash usullari, analiz va sintez, tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, tanlanma kuzatish hamda tajriba kabi usullardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: kichik va xususiy tadbirkorlik, qulay tadbirkorlik muhiti, tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy va huquqiy asoslari, soliq va bojxona imtiyozlari, mahalliy hokimiyat, mulkchilik shakli, mulk daxlsizligi, soliq, xususiy tadbirkorlik.

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi muntazam ravishda oshib bormoqda. Kichik biznesni rivojlantirishda xududlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan mahalliy hokimiyat organlari o‘z hududining moliyaviy va moddiy imkoniyatlarini, mahsulot va xizmatlarning muayyan turlari bo‘yicha aholining haqiqiy ehtiyojlarini, mintaqa nuqtai nazaridan faoliyat sohalarini va mulkchilik shaklidagi resurslardan samarali foydalanish yo‘llarini aniq bilishadi. Mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘rildi[1]. Mamlakatimizda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy va huquqiy asoslarining

yaratilganligi ijobiy natijalarga erishishga sabab bo‘lmoqda. Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda keng ko‘lamli soliq va bojxona imtiyozlarining berilishi natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati sezilarli darajada yaxshilandi. Bundan tashqari, davlat tomonidan “2022 yildan boshlab bosqichma-bosqich tadbirkorlikka oid barcha majburiy talablarni yagona elektron reestrغا kiritish tartibi joriy etish hamda takrorlanuvchi va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan majburiy talablarni qayta ko‘rib chiqish” kabi vazifalarning qo‘yilishi bu sohada tub o‘zgarishlar bo‘lishiga zamin yaratmoqda [1; 9-band]. Bugungi kunda mamlakatimizdagi “...islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta’minlashdir” [2; 6 b.]. Shunday ekan, bugungi kunda kichik va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish masalalari o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi.

O‘rganilganlik darajasi.

Oxirgi yillarda kichik va xususiy tadbirkorlik sohasida xorijiy davlatlar iqtisodchilaridan Paul Burns [3], Robert Blackburn, Dirk De Clercq, Jarna Heinonen [6], W.Garther [4] kabilar kichik va xususiy tadbirkorlik tushunchasi, faoliyati xususiyatlari bo‘yicha tadqiqot olib borishgan bo‘lsa, E.Staley, R.Morse [5], A.Bruno, T.Tyebjee [8], Dana L.P. [9], Davidsson P. Swanson D. [10], Webster L. [11], K.Manning S.Birley, D.Norburn [7] kabi olimlar ularni rivojlantirish dasturlari, strategiyalari hamda qulay investitsion muhitni yaratishga e’tibor qaratishgan. Rossiyalik iqtisodchilardan E.Bikova [12, s. 10.], B.Jixarevich [13], N.Simionova [14], N. Yu. Nikitina, S. M. Korunov, A. A. Yashin, I. D. Oparin [15] kabilarning tadbirkorlik faoliyati va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga doir ko‘plab o‘quv qo‘llanmalari va ilmiy maqolalari chop etilgan. Mamlakatimiz olimlari tomonidan chop etilgan iqtisodiy ilmiy manbalarda “ishbilarmonlik muhiti” tushunchasiga ta’riflar keltirilmagan, lekin unga yaqin fikrlar bor. Masalan, B.Yu. Xodiev, M.S.Qosimova, A.N. Samadov kabi iqtisodchilar “tadbirkorlik faoliyatini samarali olib borish uchun ma’lum bir ishchi muhiti bo‘lishi kerak” deb qayd etadilar. Ularning mulohazalariga ko‘ra “...tadbirkorlik muhiti asosan quyidagi to‘rtta omil: huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi natijasida amalga oshiriladi” [16, 25 b.]. Taniqli iqtisodchi S.S.G‘ulomovning “Tadbirkorlik va kichik biznes” nomli o‘quv qo‘llanmasida tadbirkorlik muhitiga ichki va tashqi omillarning ta’siri va ularning o‘zgaruvchanligi to‘g‘risida qisqa fikr berilgan [17, 71 b.]. Iqtisodchi M.Rasulov esa tadbirkorlik “...rivojlanishi uchun ma’lum sharoitlar talab etilib...” [18, 227 b.] bu sharoitlar iqtisodiy, siyosiy, ruhiy va huquqiy asoslardan iborat ekanligini qayd etadi. Xususan, U.V.Gafurovning [20] kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish masalalariga va ishbilarmonlik muhitini kengaytirishga doir ilmiy dissertatsiyasi bu borada qilingan so‘nggi ishlardan biridir. Biroq, ushbu masalani o‘z ichiga qamragan ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda. Respublikamizda

bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning umumnazariy, mintaqaviy va tarmoq muammolari bir qator respublikamiz olimlarining ilmiy ishlarida keng yoritilgan [16,17,18,19,20]. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va bevosita kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida tadqiqotlar olib borgan boshqa bir tanikli olimlar esa, o‘z ilmiy ishlarida iqtisodiyotning mintaqaviy, tarmoq, infratuzilma ob’ektlarini modellashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishgan [18,20,21]. Shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimiz olimlari tomonidan respublikamizda kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish borasidagi tadqiqotlar yetarli emas yoki bo‘lmasa ko‘pchiligi tadbirkorlikning nazariy muammolariga bag ishlengandir.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan e’tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlik vakillari bilan muntazam ravishda o‘tkazilayotgan, shu jumladan 2021 yilning 20 avgustida bo‘lib o‘tgan uchrashuv ham bu fikrimizga yaqqol misol bo‘la oladi. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotimizning tobora tayanchiga aylanib bormoqda. So‘nggi yillarda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash natijasida kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari yanada faollashdi. Buning oqibatida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmining oshishi, raqobat natijasida mahsulot sifatining yaxshilanishi, o‘zaro iqtisodiy munosabatlarning diversifikasiyalashuvi yuzaga keldi. Kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash va ularga qulay investitsion sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning soni va barcha jabhalarda kichik va xususiy tadbirkorlikning ulushi yildan yilga ortib bormoqda. Mamlakatimizda kichik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini ularning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari hamda tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushidan ham xulosa qilish mumkin.

Ya’ni, oxirgi yigirma yil mobaynida ba’zi ko‘rsatkichlarda 5-10 barobar, ayrimlarida esa xatto 200-300 barobar o‘sish bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, sanoat, qurilish, savdo, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida juda katta ijobiy o‘zgarishlar, tadbirkorlarning faollashuvi kuzatilgan. Bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblangan, chet davlatlarda mehnat qilayotgan fuqarolarimizga o‘zimizda yangi, ularga munosib xaq to‘lanadigan ish o‘rinlarini yaratib berishni aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali hal etishimiz mumkin. Ammo, hal etilishi lozim bo‘lgan kamchiliklarimiz ham yo‘q emas. Jumladan, sanoat ishlab chiqarishida va eksportdagi ulush qoniqarsiz ko‘rsatkichligicha qolmoqda.

Xulosa

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, hamda davlatimiz rahbari tomonidan 2022 yilning 28 yanvarida qabul qilingan PF-60-sonli Farmonga asosan tadbirkorlarga qulay sharoit yaratib berish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar sifatida quyidagi chora-tadbirlarni keltirishimiz mumkin.

- sharoiti “og‘ir” tumanlarda yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik sub’ektlariga aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz stavkada hamda yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlari hisoblangan summadan 1 foiz stavkada to‘lash tizimini joriy etish;

- tadbirkorlikka oid barcha majburiy talablarni yagona elektron reyestrda kiritish hamda takrorlanuvchi va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan majburiy talablar qayta ko‘rib chiqish;

- litsenziya va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlarni olish tartib-taomillarini soddalashtirish;

- iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor uchun keng yo‘l ochish;

- har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o‘rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqish;

- mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari tomonidan mahallalarni rivojlantirish bo‘yicha «yo‘l xaritalari»ni ishlab chiqish;

- har bir tumanda «Innovatsiya va texnologiya markazlari» tashkil qilib, tadbirkorlarga amaliy yordam ko‘rsatish; - har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan «Ochiq muloqoti»ni o‘tkazish;

- hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes inkubatorlar tizimini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. ”O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60 sonli farmoni.

2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

3. Paul Burns. Entrepreneurship and Small Business. 5th Edition. Red Globe Press, 2021. - 584 p.

4. Garther W.B. A Conceptual framework for describing the phenomenon of new venture creation Academy of Management Review, 10 (A), pp. 696-706.

5. Staley E., Morse R. Developing entrepreneurship: Elements for a program in P.Kilby (Ed) Entrepreneurship and economic development, pp. 357-384.
6. Robert Blackburn , Dirk De Clercq , Jarna Heinonen. The SAGE Handbook of Small Business and Entrepreneurship. SAGE Publications Ltd, 2018. – 680 p.
7. Manning K., Birley S., Norburn D. Developing new ventures strategy Entrepreneurship Theory and Practice, 14 (1), pp. 69-76.
8. Bruno A.V., Tyebjee T.T. The environment for entrepreneurship in C.A. Kent, D.L.Sexton, K.H.Vesper (Eds.), Encyclopedia of entrepreneurship, pp. 288-307. Englewood Cliffs, NJ. Prentice Hall.
9. Dana L.P. The spirit of entrepreneurship and the commonwealth government of Australia. Journal of Small Business Management, 26(1), pp. 63-65.
10. Davidsson P. Continued entrepreneurship. Ability, need, and opportunity as determinants of small firm growth. Journal of Business Venturing, 6, pp. 405-429.
11. Swanson D., Webster L. Private sector manufacturing in the Czech and Slovak Republic: A survey of firms. Washington, DC: The World Bank.
12. Быкова Е.С. Методологические основы оценки институциональной среды предприятия при формировании интеграционных процессов. //Ж. Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. №5. 2013.
13. Жихаревич Б.С. “Методы оценки параметров хозяйственного климата и разработки программы его улучшения. // <http://www.myshared.ru/slide/95848>
14. Симионова Н. Е. Понятие бизнес-среды предприятия. <http://www.involveman.ru/kars-572-1.html>
15. Н. Ю. Никитина, С. М. Корунов, А. А. Яшин, И. Д. Опарин. Предпринимательство. Учебное пособие. – Екатеринбург.: Издательство Уральского Университета, 2020.
16. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik. O.,quv qo,,llanma. –T.: TDIU, 2010

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	A PROGRESSIVE DIRECTION IN MODERN EDUCATION IS STEM EDUCATION Hoshimova Nargis Minojiddinova Shahrizoda-	4
2.	USING STEAM TECHNOLOGIES IN ENGLISH LESSONS Hoshimova Nargis Minojiddinova Shahrizoda	10
3.	MODERN METHODS OF TEACHING LISTENING IN ESP STUDENTS O‘rinov Rustambek Ravshanovich Mirzayev Ashurali Baxtiyor o‘g‘li	16
4.	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN XOLDA O‘QITISH MEDODIKASI Hoshimova Nargis Madaminova Odinaxon	21
5.	SOME ASPECTS OF A CLASSIC ENGLISH DETECTIVE Uzakova Odinaxon Mokhirjon kizi Khoshimova Nargis Abdullayevna	26
6.	AMIR TEMUR DAVLATIDA HARBIY TIZIM Boydedayev Dostonbek Xusniddin o‘g‘li	32
7.	CHINESE EXPERIENCE FROM THE DEVELOPMENT OF FREE ECONOMIC ZONES Nabihoyayeva is the daughter of Dilafroz Sabir	36
8.	KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI Isadjanova Durдона Baxadirovna	39
9.	EKOLOGIK-HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHDA HUQUQIY TA‘LIMNING O‘RNI Ayapbergenov Maxsud Maxmud uli Omirzaqov Rustem Abdirazaq uli	44
10.	OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINING XUSUSIYATLARI VA INSON ORGANIZMI UCHUN AHAMIYATI Djo‘rayev Ilhom Tolkunbayevich	48
11.	MA‘MURIY BINOLARNING ELEKTR ENERGIYASI ISTE‘MOLINI 30 % MIQDORIDA QOPLASH UCHUN O‘RNATILADIGAN QUYOSH FOTOELEKTRIK TIZIMINI QUVVATINI ANIQLASH Mirzayev Axror Abdullayevich Murtazayeva Fayyoza Mirjahon qizi	56
12.	МОНИТОРИНГ И УПРАВЛЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ ВОДОХОЗЯЙСТВЕННЫХ СИСТЕМ Маматкулов Т.Ч. Салохиддинов Ж.А.	61
13.	BOSHLANG‘ICH SINFLARINING O‘QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV TA‘LIM HARAKATLARINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YIN FAOLIYATIDAN FOYDALANISH Xamidova Diyora Jamshedovna Fayziyev Mirzaali Asfandiyorovich2	67
14.	ADAPTIV JISMONIY TARBIYA VOSITALARI (GIMNASTIKA VA UNI O‘QITISH METODIKASI FANI MISOLIDA) Xamroyev Bexruz Xalimovich	74

Eslatma! “Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

O.S.Isroilov

Nashrga tayyorlovchi

M.U.Abdullayeva

“Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnali, 124 bet.

© <https://ilmfanvatalim.uz/>

© Farg‘ona, Mualliflar jamoasi, 2023